

SUISIDAL XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Rizayev Azizjon Raximdjanoich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ma'lumki, insonning xulq-atvori polimotivlashtirilgan bo'ladi. Shuning uchun, suicidal xulq-atvor odatda bir vaqtdayoq bitta emas, bir nechta harakatlanayotgan va o'zaro harakatlanish motivlari bilan sharhlanadi. Dolzarb ehtiyojlar frustratsiyasi bir necha holatida autodestruktiv xulq-atvorni belgilaydi. O'z joniga qasd qilish, o'zini hayotdan ongli mahrum etish sifatida, fikr yuritganda, faqatgina suisidning tashqi ijtimoiy sabablarini emas, balki nizolar shaklida namoyon bo'ladigan ichki shaxs motivlarini ham ko'rib chiqish zarurdir. Bunday yondashuv natijasida, suicidal xulq-atvorning sabablari sifatida ko'p omillar kelib chiqadi.

Tayanch tushunchalar: suicidal xulq-atvor; informatsion axborot texnologiyalari, ehtiyotsizlik, baxtsiz hodisa, xulq-atvor mexanizmlari, biologik konsepsiya, psixologik konsepsiya, autodestruktiv harakat, agressiya, autoagressiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМ ПРОЯВЛЕНИЯ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Ризаев Азизжон Рахимджонович

Исследователь Ташкентского государственного университета востоковедения

Аннотация: Известно, что человеческий организм будет полимотивированным. Поэтому суицидальное поведение обычно сопровождается не одним, а несколькими движущимися и взаимными мотивами. Фрустрация актуальных потребностей в ряде случаев определяет аутодеструктивное поведение. В качестве самоубийства, осознанного лишения себя жизни необходимо рассматривать не только внешние социальные причины суицида, но и мотивы внутреннего личности, проявляющиеся в виде конфликтов. В результате такого подхода в качестве причин суицидального поведения возникает множество факторов.

Базовые понятия: суицидальное поведение, информационные технологии, неосторожность, несчастный случай, механизмы поведения, биологическая концепция, психологическая концепция, аутодеструктивное действие, агрессия, аутоагрессия.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF SUICIDAL BEHAVIOR

Rizaev Azizjon Rakhimdzhonovich

Researcher of Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: It is known that the human body will be polymotivated. Therefore, suicidal behavior is usually accompanied not by one, but by several moving and mutual motives. Frustration with urgent needs in a number of cases determines auto-destructive behavior. As suicide, conscious deprivation of life, it is necessary to consider not only the external social causes of suicide, but also the motives of the inner personality, manifested in the form of conflicts. As a result of this approach, many factors arise as causes of suicidal behavior.

Basic concepts: suicidal behavior, information technology, negligence, accident, mechanisms of behavior, biological concept, psychological concept, auto-destructive action, aggression, auto-aggression.

Kirish. Ming yillikning XX asrida insoniyat ulkan iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik o'zgarishlar va hodisalarga guvoh bo'ldi. Ko'pgina davlatlarning vayronagarchiligi va millionlab insonlarning o'limiga sababchi ikkinchi jahon urushi; dunyoning mavjudligiga rahna soluvchi sovuq urush davri; kommunizm g'oyasi va uning inqirozi; televizor, internet, kosmik raketalar kabi ilmiy va texnik kashfiyotlar; atrof-muhit muammolarining globallashuvi, ya'ni suv va havoning ifloslanishi, ozon qatlamining yemirilishi va havoning notabiiy tarzda isib ketishining butun jahon miqyosida kechishi va hokazolar insoniyatning ko'z oldida sodir bo'ldi va bo'lmoqda.

Dolzarbliigi. Bugungi davr informatsion axborot texnologiyalari davri bo'lib hisoblanadi. Bu davr taraqqiyot, inson va uning ijtimoiy psixologik tuzilishini yanada murakkablashtirdi. Bunda, inson qudrati va uning imkoniyatlari yanada ortishi natijasida, odam o'zini-o'zi yo'q qilib yuborish darajasiga borib yetdi. Turli xildagi yangidan-yangi qurollar (yadroviy, bakteriologik, lazer v.b.) sinovlari va "Sovuq urush"ning XXI asrda ham "Mafkuraviy urush" sifatida davom etishi, shuningdek, boshqa ijtimoiy va iqtisodiy holatlar shaxs va uning ijtimoiy psixologik tuzilishiga ta'sir etib kelmoqda.

Axborot texnologiyalari davrida yashayotgan inson juda ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirishi, ularga javob berib borishi, ma'lumotlar natijasida yuzaga kelayotgan muammolarini hal qilib borishi oqibatida, kundalik ijtimoiy muammolar uning ruhiy holati, asab tizimiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Shaxs albatta, jamiyatda yashash va o'z o'rnini topish uchun yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda turli qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy holdir.

Jumladan, jamiyat hayotida jiddiy siyosiy o'zgarishlar yuz berganida inson o'ziga, o'zligiga yanada teranroq nazar tashlashga intilib qoladi. Inson umri va hayoti past-baland, egri-bukri, tekis va notekis so'qmoqlardan iborat. Bu holat hayotning o'ziga xos bo'lgan sinovidir.

Bugun shaxs psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini, o'z iqtidorini bilish, har qanday yosh davrida ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammolarini ilgari surmoqda.

Harbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan sohalarda xizmat olib borayotgan shaxslar uchun psixologik bilimlarni egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab, keyingi 10 yillarda harbiy sohalarda ham suitsidal muammolar ko'payib borayotganligi buning asosiy sababi bo'lib kelmoqda. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra o'lim sabablariga ko'ra suitsid yurak qon tomir, onkologik va travmatizmdan keyin 4-o'rinni egallashi tashvishli holatdir. Har yili dunyo aholisining millionga yaqin kishisi o'z joniga qasd qiladi. Natijada bularning 80% o'lim bilan yakunlanadi [1].

Ijtimoiy psixologiyada suitsid va uning sabablari, uning oldini olish choralari hamon muammoligicha qolmoqda. Uni atroficha o'rganish, ayniqsa, suitsid sabablarini tahlil qilish va uni kamaytirish bugungi kunda zamonaviy psixologiyaning dolzarbligi va ahamiyatli mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Tahlillar. O'z joniga qasd qilish yoki suitsid bir taraflama harakat bo'lib, unda oxiriga yetkazilmagan holatlar ham kuzatiladi. Ehtiyotsizlik oqibatida yoki o'zini bilmay, anglamay sodir qilingan holat – o'z joniga qasd qilish (suitsid) jarayoni deb hisoblanmaydi. Balki, baxtsiz xodisa toifasiga kiritiladi.

O'z joniga qasd qilish yoki o'zini-o'zi o'ldirish holati azal-azaldan kishilik jamiyatida mavjud bo'lgan holat hisoblanadi. Bu haqda ko'plab tarixiy va etnografik ma'lumotlarda aks ettirilgan [2]. Bunga misol qiladigan bo'lsak, qadimgi yapon Samuraylari, ular uchun asir tushishdan ko'ra o'zini-o'zi o'ldirish bu sharaf hisoblangan, yoki qadimgi Misr malikasi Kleopatriya ham Rim iste'losidan keyin o'limni afzal bilgan, yoki arab bosqiniga qarshi kurashgan Muqanna v.b.

Suitsid holatlarini qayd qilib boruvchi dunyodagi eng katta institut Shvesiyada joylashgan bo'lib, uning hisob-kitoblariga ko'ra Markaziy Yevropa davlatlari bu borada peshqadam ekanligini ta'kidlashmoqda.

Hozirgacha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra shaxs suitsid haqidagi o'z rejalarini topishga «kalitlar» va ogohlantirishlar beradi. O'z joniga qasd qilishni o'ylaganlarning 10 tadan 8 tasi atrofda qilarga bu haqda doimo bildirishga harakat qilib borishgan.

O'zini o'ldirmoqchi bo'lganlarning ko'pchiligi o'z harakatlarini avvaldan o'ylab chiqishadi. Ular ko'pincha o'zlarini o'ldirishdan oldin o'z niyatlarini atrofda qilarga bildirishadi.

Suitsidlarning asosiy foizi kuchli depressiv holatda sodir etiladi. Depressiv holatda bo'lgan insonlar vaziyatni nazorat qilish va ushlab turish maqsadida spirtli ichimliklardan yoki bo'lmasa turli narkotik moddalardan foydalanishadi. Ushbu vositalar shaxsda voqelikni buzib idrok etishga olib keladi.

Umuman, suitsidal xulq shakllanishini o'rganish muammosi ko'p tarmoqli va keng ko'lamli ekanligi bilan ajralib tursada, mazkur muammo bo'yicha talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini alohida ta'kidlash mumkin. Aytish joizki, ko'pgina tadqiqotlarda odatda tadqiqot ob'ektini xotirasini yo'qotish natijasida o'z joniga qasd qilishga uringanlar va psixonevrologik dispanserlar ro'yxatida turgan shaxslar tashkil etgan. Suitsidentlarning qolgan guruhlari esa, ayniqsa o'z joniga qasd qilganlar, ilmiy tadqiqot nazaridan chetda qolib ketmoqda. Shu bois suitsidal xavfning shaxs omillarini aniqlash muammosini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Suitsid yoxud o'z joniga qasd qilish asrlar davomida jiddiy ijtimoiy muammo bo'lib kelgan. XX asr boshida A.F. Koni ta'kidlagandek, ".....o'z joniga qasd qilish yakka hodisa bo'la olmay, balki yaxlit ijtimoiy hodisaga aylanib qolib, ushbu vaziyatni chuqur o'rganish va unga qarshi samarali kurash olib borishni talab qilmoqda" [3].

O'z joniga qasd qilish muammosi (suitsid) autoagressiyaning so'nggi namoyishi sifatida jamiyat rivojlanishining tarixi davomida mavjud bo'lgan. Ammo hozirgi vaqtgacha suitsidal xulq-atvorning tabiatini izohlab beruvchi birorta yaxlit nazariya yaratilmagan. Suitsid fenomenini izohlab beruvchi va sabablarni izohlovchi turli qarashlar mavjud. Ko'pgina nazariy konsepsiyalar o'rtasida asosiy farqlarni ajratib olish mumkin: biologik, psixopatologik, psixologik va ijtimoiy.

Biologik konsepsiya doirasida suitsidal xulq-atvor shakllanishining genetik, fiziologik va boshqa organizmlar hayot faoliyati parametrlari ning asosiy prediktorlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Ushbu yo'nalish namoyondalarining hisoblashicha, ba'zi bir shaxslar biologik yoki psixik buzilishlar natijasida suitsidga alohida moyilligi bor [4].

Bir qator mualliflar fikricha, autodestruktiv xulq-atvor shakllanishida genetik omilning ahamiyati tasdiqlanganki, bu o'z joniga qasd qiluvchilarning qarindoshlari orasida suitsid ko'proq sodir etilishi bilan kechadi [5]. Biroq, psixodinamik va klinik-psixologik yondashuv namoyondalari fikricha, suitsid sabablarini genetik asoslarda emas, balki yaqin insonini o'z joniga qasd qilish faktining psixogenetik ta'sirida, uning qarindoshlar

xulq-atvoriga modellashtirilgan ta'sir o'tkazayotganligida deb qaraladi [6]. Rossiya suitsidologiya maktabi namoyandalari A.G. Ambrumova va L.I. Postovalova fikricha, autodestruktiv xulq-atvorning sabablarini, eng avvalo, bir necha avlodda suitsidal xulq-atvor takrorlanishining ijtimoiy va psixologik sabablaridan qidirish lozim [7]. Suitsidal xulq-atvorni o'rganishning biologik yondashuvdagi psixopatologik konsepsiya alohida e'tiborga loyiq, uning asosida o'z joniga qasd qilganlarning hammasi psixik kasalliklarga chalingan shaxslar, degan fikr mavjud. XIX asrning ikkinchi yarmida, inson faqatgina jinnilik holatida o'z joniga qasd qilishi mumkin, degan fikr hukm surar edi. Fransuz psixiatri Eskirol shu borada, psixik kasallik va o'z joniga qasd qilish o'rtasida aniq aloqadorlik borligi haqidagi fikrni ilgari surgan. Ushbu konsepsiya tarafdorlari qatorida taniqli rus psixiatrlari N.P. Bruxanskiy, L.A. Prozorov, I.M. Gvozdev va boshqalar nomini qayd etish lozim.

O'z joniga qasd qilishning moddiy asosini topishga yo'naltirilgan tadqiqotlar 19-asr davomida va 20-asr boshida olib borilgan. Ammo sanoqsiz anatomik yorish natijalari ham suitsidal xulq-atvor, anatomo- fiziologik ma'lumotlar va psixik kasallik mavjudligi o'rtasida aloqa borligini aniqlashga imkon bera olmadi. Shu borada, 20-asr boshida rus suitsidologi G.Gordon o'zining "Zamonaviy o'z joniga qasd qilish" (1912) asarida ruhiy kasallik va o'z joniga qasd qilish o'rtasida bevosita aloqa yo'qligi haqida yozmoqda. Muallif fikrlarining asosi sifatida 371 nafar o'z joniga qasd qilgan insonlarning tanasini yorib ko'rgan, natijada faqatgina 7.6 % foizida ruhiy kasallik alomatlari kuzatilgan va venalik vrach A. Bronza tadqiqotiga tayangan [8]. Ammo, psixik kasallar orasida o'z joniga qasd qilishning yuqori darajasini inobatga olgan holda, ko'pgina psixiatrlar suitsid faktini psixik kasalliklar mavjudligi bilan izohlash tarafdori ekan. O'z joniga qasd qilishni alohida nozologik birlik sifatida ajratish uchun urinishlar bo'lgan, suitsidomaniyani davolash uchun turli fizioterapevtik va medikamentoz usullar taklif qilingan.

Amaliyotda kuzatilganidek, ko'pgina psixik kasallarda suitsid depressiya, paranoid va gallyusinator-paranoid holatlarda uchraydi.

Suitsidning yuqori foizi narkomaniya va alkogolizmga chalingan, shaxsiy nosozliklari mavjud bo'lgan kishilarda uchraydi. Masalan, Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotlarda, 100 ta o'rganib chiqilgan suitsidentlar kasallik tarixidan 93 nafar suitsident psixik kasal deb tan olingan, (shaxsdagi noxush holatlar ular hayotining o'z joniga qasd qilish bilan tugagan, 50% alkogoliklarda va taxminan 20% depressiv kasallarda kuzatilgan). A.G. Ambrumova va V.A. Tixonenko izohlaganidek, suitsidentlar majmui uchta asosiy dignostik kategoriya bilan namoyish etilgan: ruhiy-asab yetishmovchiliklari bilan chegaradosh psixik kasalliklarga chalingan kasallar va mutlaqo psixik sog'lom bo'lgan shaxslar. Mualliflar fikricha, o'z joniga qasd qilish alohida klinik fenomen bo'la olmaydi. Ular berilgan ma'lumotlarga ko'ra uchala keltirilgan kategoriyalar bo'yicha o'zaro miqdor nisbati 1.5:5:1 [9].

Hozirgi zamon mamlakatimiz va chet el adabiyotlarida tan olinganki, 25-30% suitsid psixik kasallar tomonidan sodir etiladi, qolgan miqdori psixik sog'lom va psixik noxushlik bilan chegaradosh shaxslarga to'g'ri keladi [10].

Biroq, oxirgi yillarda suitsidal xulq-atvor mexanizmlarining aniqlanganligi haqidagi fakti inobatga olmoq lozim. Shu yo'nalishda, Dj. Mann, M. Asberg, U. Bekker, G.L. Braun va boshqalar asarlarida suitsidal xulq-atvor va depressiyaning bioximik korrelyatlari aniqlangan. Ta'kidlash joizki, suitsidal xulq-atvorning biologik prediktorlari psixologik materiallarda topilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, mualliflarning katta qismi, suitsidal xatti-harakatlarni psixik kasallar bilan birga, mutlaqo sog'lom shaxslar ham sodir etishi mumkin degan qarashni ilgari surgan. Shuning uchun, suitsidni faqatgina to'g'ridan-to'g'ri psixik patologiya natijasi deb emas, balki psixopatologik simptomlar va individum ijtimoiyligining asosini tashkil etadigan, uning genezisida atrof-muhit ta'siri va shaxs ijtimoiy-psixologik tuzilishining o'zaro bog'liqligi katta ahamiyatga ega ekanligini ko'p omilli hodisa sifatida ko'rib chiqish lozim [11].

Psixologik konsepsiya, shaxsning suitsidal tendensiyalarining shakllanishida psixologik omil yetakchi o'rin egallashi haqida qarashlar aks ettirilgan. Suitsid fenomenini izohlashga psixologik yondashuv shakllanishining asoschisi Z. Freyd hisoblanadi. Z. Freyd fikricha, suitsidni insonda ikkita asosiy intilish mavjudligi (hayot instinkti va o'lim instinkti) haqida tushunchalari asosida tahlil qilish zarur va libido vazifasi, vayron etuvchi instinktni ro'yobga chiqarib, atrof-muhit ob'ektlariga yo'naltirib zararsizlantirishdan iborat. Ya'ni, "...o'z o'zimizni yo'q qilishimiz uchun qandaydir narsa yoki insonni qirib tashlash kerakdek tuyiladi..." [12].

Shunday ekan, o'limga instinktiv intilish odamlarga nisbatan agressiv munosabatda namoyon bo'ladi. Freyd fikricha, suitsid va o'ldirish o'lim instinktning barbod etuvchi ta'sirining namoyishi. Freyd taxminicha, o'lim instinkti seksual energiya bilan birlashganda yoki insonning o'ziga yoki atrofda ob'ektlarga qarshi yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. O'ldirish – boshqalarga yo'naltirilgan agressiya, suitsid esa – o'z-o'ziga yo'naltirilgan agressiya. Olimning ta'kidlashicha, suitsidni oqlab bo'lmaydi, chunki u teskarisiga ag'dargan o'ldirishdir. Freyding fikricha, autoagressiv harakat sodir etib, inson o'zida ambivalent hissiyotlar kechirayotgan muhabbat ob'ektini o'ldiradi.

Z. Freyd o'z joniga qasd qilishning bir qator klinik xususiyatlarini ajratgan. Bular: boshqa insonlarga o'lim tilashning gunohkorlik hissiyoti; suitsidal ota-ona bilan tenglashtirish; libido qoniqishining yo'qotilishi; ayniqsa

qoniqish yo'qotilishi uchun o'ch olish; yordamga chaqirish. O'z joniga qasd qilishning chuqur ildizlarini Freyd sadizm va mazoxizmga ko'rgan edi. [13].

Psixozanaliz maktabining davomchisi Karl Meninger hayot va o'lim instinktlarini, doimiy birlashish va kurash qarama-qarshilikda bo'lgan, konstruktiv va destruktiv tendensiyalar deb ataydi. K. Meninger o'z joniga qasd qilish bilan bir qatorda asketizm, chekish, hayot uchun xavfli kasblar va qiziqishlar va boshqa hodisalarni ko'rib chiqadi. Olimning fikricha, jamiyatning oddiy a'zosidan farqliroq, "doimiy o'z joniga qasd qiluvchi shaxs" o'zini qurbon etish ichki ehtiyoji orqali boshqaradi. Birinchi qarashda o'zidan nom qoldirish deb tuyilgan narsa, aslida tekshirishdan keyin destruktiv kuchlarning niqob osti namoyishi bo'lib chiqadi [10].

Karl Meninger Z. Freydning suitsid haqida qarashlarini rivojlantirdi, suitsidal xulq-atvorning sabablarini chuqur tadqiq etib, uning uchta asosiy qismini ajratib ko'rsatdi:

O'ldirish xohishi (suitsidentlar ko'pgina holatlarda infantil shaxslar bo'lib, o'z xohishlarini ro'yobga chiqara olmaslik holatlarida agressiv munosabat bildiradilar);

O'ldirilish xohishi (suitsid bu bo'ysinishing eng yuqori darajasi, shuning uchun ba'zi bir shaxslar axloq me'yorlarini buzish natijasida ruhiy azoblarga bardosh berolmay, buning yechimini faqatgina ixtiyoriy hayotdan ketish holatida topadilar);

O'lish xohishi (o'z hayotini asoslanmagan xavfga solish shaxslarga xos bo'lgan va kasallarga, ular uchun o'lim jismoniy va ruhiy azoblardan xalos bo'lish uchun yagona yo'ldir).

Meninger fikricha, agar insonda uchala bayon etilgan xohishlar paydo bo'lsa, suitsid inkor etib bo'lmaydigan real voqeaga aylanadi [14].

Ta'kidlash joizki, Meninger 20 asrning 30-yillarida "lokal o'z joniga qasd qilish" tushunchasini asoslab bergan. "Lokal o'z joniga qasd qilish" tushunchasi o'zi o'zini yo'qotish shakli deb izohlanadi, unda vayron qilish tendensiyasi o'z tanasiga, uning alohida qismlari va organlariga nisbatan namoyon bo'ladi. Ushbu o'zini o'zi yo'q etish kategoriyasiga olim ba'zi bir tasodif baxtsiz hodisalarni, tasodifan olingan shikastliklarni kiritadi, uning fikricha aslida esa bu harakatlar ong ostida sodir etilishini kuzatish mumkin.

Karl Gustav Yung o'z joniga qasd qilish masalasiga oid qarashlarida [15] insonda ruhiy qayta tug'ilish intilishi mavjud bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri ruh ko'chishidan qayta tug'ilishigacha turli shakllarni qabul qiladigan, jamoaviy ongsiz arxetip bilan bog'liqligiga ishora qilgan. Ushbu ruhiy qayta tug'ilishga intilish – suitsidning tarkibiy motivatsiyalaridan biri bo'lishi mumkin.

Psixologiyada psixodinamik yo'nalish va egopsixologiya namoyandasi Karen Xorni tomonidan taxmin qilinishicha, bazis tashvish natijasida nevroitik janjal paydo bo'lishining sababi atrof-muhitdagi insonlar bilan o'zaro munosabatlarning buzilishi bo'ladi. Bundan tashqari, olimning fikricha, og'ir hayotiy vaziyatlarda odamlar yolg'izlik, nochorlik, qaramlik, dushmanlik his qilishi mumkin, bu esa suitsidal hulq-atvorning rivojlanishi uchun asos bo'lishi mumkin. Suitsid bolalik qaramligi natijasida paydo bo'lishi ham mumkin, chuqur ildiz solgan norasolik hissiyotlari yoki Xorni aytib o'tgan, insonning o'zida o'z haqida mavjud bo'lgan "ideallashtirilgan qiyofa" borligi. O'z joniga qasd qilish "suitsid ijro etish" bo'lishi ham mumkin, insonda jamiyat me'yorlariga noliqlik hissi paydo bo'lishi natijasida. Karen Xorni to'g'ridan-to'g'ri himoyalani va o'z xohishiga yetish vositasi shaklida mazoxistik funksiyalarni aniqlab, zamonaviy autoagressiv motivatsiya asosini keltiradi. Birinchi holatda mazoxistik nochorlik va o'zini azoblash yordamida raqobat va aybdorlikdan qochadi, ikkinchi holatda - o'z xohishiga yetadi (muhabbatga, yordamga, nazorat qilishda, boshqalarni ayblashda).

Xorni qarashlariga muvofiq, suitsid shaxs ichki xarakteristikallari va atrof-muhit omillarining qo'shilishi natijasidir [16].

Amerikalik psixozanalitik G.S. Salliven [16] psixologiyada shaxslararo muloqot nazariyasini ishlab chiqqan. G. Sallivenning ta'kidlashicha, shaxslararo janjallar insonni uzoq vaqt davomida "Men yomon" degan qiyofada yashashga majbur etadi, va bu holda inson "Men yomon" qiyofasini "Men yaxshi" ga o'tkazishga xohish paydo qiladi, shunday qilib suitsid sodir qiladi. Salliven fikricha, suitsid bu boshqa odamlarga va tashqi muhitga o'ziga qayta yo'naltirilgan dushmanlik munosabatini aks etadi.

Suitsidal xulq-atvorni tahlil etishning ijtimoiy yondashuv asoschisi E. Dyurkgeym hisoblanadi. Suitsidologiyada birinchi klassik asar hisoblangan "O'z joniga qasd qilish: ijtimoiy etyud" (1897) asarida, jamiyatdagi alohida shaxslar tomonidan o'z joniga qasd qilish sodir etish ehtimoliga jamiyatning ta'sir qilish mexanizmi o'rganib chiqilgan. E. Dyurkgeym tomonidan o'z joniga qasd qilishni sodir etishning sabab va shartlari tahlil etilgan, bunda o'z joniga qasd qilish foizi ijtimoiy sabablarga bog'liqligi va jamiyatning ma'naviy tuzilishi bilan aniqlanadi. Suitsidallik, olimning fikricha, jamiyat tuzilishining ikkita komponenti bilan aniqlanadi: jamiyatning fikr, maqsadlari va qiziqishlar roziligi darajasi bilan (ijtimoiy integratsiya) va alohida insonga jamiyatning ta'sir qilish darajasi bilan. Bundan tashqari, Dyurkgeym o'zi rivojlantirgan "Ijtimoiy organizm", "Jamo ruhi" va boshqa tushunchalar haqida qarashlariga muvofiq, har bir ijtimoiy guruhga faqatgina unga xos suitsidga jamoaviy moyillik mansub deb hisoblagan. O'z navbatida bu moyillik individual moyilliklar ifodalanishini aniqlaydi. Moyillik hozirgi vaqtda jamiyatga mansub uchta oqimga asoslanadi: altruizm, egoizm va anomiya. Bu jamoa moyilliklari interiorizatsiya jarayoni natijasida individ xulq-atvorini va uning o'z hayoti va o'limiga munosabatini aniqlab beradi. Shunga muvofiq suitsidning ham uchta turi mavjud: altruistik, egoistik

va anomik turlari.

Xulosa. Shunday qilib, ijtimoiy konsepsiyaning kelib chiqish asosida suitsidal xulq-atvorda ijtimoiy integratsiya pasayishi va mustahkam emasligi yotadi, o'z joniga qasd qilish esa hamma holatlarda individni ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan tushunish mumkin, bu vaziyatda ijtimoiy omillar yetakchi ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, keltirilgan nazariyaning katta ahamiyatga ega ekanligiga qaramasdan suitsidal tendensiyalar rivojlanishi ba'zi bir xususiyatlarini anglash, ijtimoiy va jamoa omillarini o'rganish - bular muammoni o'rganishning faqat bir tomoni. Alohida insonning suitsidal harakatini tushunish uchun shaxs va ijtimoiy madaniy omillarni o'rganish zarur.

Muammoga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'z joniga qasd qilish psixik yoki organik kasalliklar natijasida bo'lmay, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning izdan chiqishi yoki buzilishi mahsuli hamdir. Olimlar fikriga ko'ra suitsidni yuzaga keltiruvchi va sabablarni shaxsning ruhiy va individual – psixologik xususiyatlaridan tortib, to jamiyatdan, undagi ijtimoiy muhitdan izlash kerakdir. Ya'ni o'z joniga qasd qilish ijtimoiy hodisa bo'lib, suitsid ko'lamli ijtimoiy tizimning «noinsoniy» strukturasi bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar va manbalar:

- Shekhar Saxena, Etienne Krug, Oleg Chestnov. ВОЗ: Предотвращение самоубийств. Глобальный императив. (рус.). ВОЗ. Всемирная организация здравоохранения (2014). Проверено 12 апреля 2015.].
- Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. Пер. с франц. М.: Просвещение, 2004. – 375 с.].
- Кони А.Ф. Собрание сочинений. - М.: Юридическая литература. Т. 3. С. 454-482.
- Ефремов В.С. Основы суицидологии. - СПб.: Диалект, 2004. С. 104.
- Амбрумова А. Г. Индивидуально-психологические аспекты суицидального поведения. С. 46-54
- BarracloUGH V. M. et. al. A hundred cases of suicide. Clinical aspects // Br. J. Psychiatry. 1974. 125. P. 355-373
- Амбрумова А.Г., Постовалова Л.И. Мотивы самоубийств // Социологические исследования. 1987. № 6. С. 52-60
- Гордон Г.И. Современные самоубийства // Русская мысль. 1912. № 5. С. 74-93
- Амбрумова А. Г. Непатологические ситуационные реакции в суицидологической практике // Научные и организационные проблемы суицидологии. -М., 1983. С. 40-52
- Меннингер К. Война с самим собой. - М.: ЭКСПО-Пресс, 2000. С. 153
- BarracloUGH V. M. et. al. A hundred cases of suicide. Clinical aspects // Br. J. Psychiatry. 1974. 125. P. 355-373
- Фрейд З. По ту сторону принципа удовольствия // Психология бессознательного. - СПб., 2002. С. 340—378
- Фрейд З. Мы и смерть // Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1994. С. 5-42.; Freud S. Mourning and melancholia // Hogarth Press, London – 1957
- Menninger K. Man Against Himself. A Harvest / НВ J Book, Harcourt Brace Jovanovic Publishers. - San Diego, New York, London, 1985
- Юнг КГ. Душа и миф: шесть архетипов. - Киев, 1996. – 384 с.; Юнг К. Г. Структура психики и процесс индивидуализации. — М.: Наука, 1996.-200 с
- Хорни К. Наши внутренние конфликты; Невроз и развитие личности // Хорни К. Собр. соч. в 3 т. - М.: Смысл, 1997